

## YARIMO'TKAZGICHLI DIODNING VOLT-AMPER TAVSIFINI O'RGANISH

**Ishning maqsadi:** yarimo'tkazgichli dioddan o'tuvchi tok kuchini unga qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligini o'rganish.

**Kerakli asboblar:** yarimo'tkazgichli diod (kolodkada); o'zgarmas tok manbai (36-42 V); kalit; o'tkazgich simlari; milliampermestr; reostat; voltmetr (1-rasm).



### Ishni bajarish tartibi

1. Kerakli asboblar to'planib, 2-rasmdagi chizma bo'yicha elektr zanjiri yig'iladi. Chizmada quyidagi belgilashlar keltirilgan: M - o'zgarmas tok manbai; R - reostat; V - voltmetr; mA - milliampermestr; D - diod; K - kalit.

2. Ochiq (zanjir uzilgan) holatga keltiriladi.
3. Reostat surgichini surib, voltmetrning ko'rsatishi 0 V bo'ladi-gan holatga qo'yiladi.

4. Kalit ulanadi.

5. Reostat jilgichini surib, tashqi zanjirga beriladigan kuchlanish orttirib boriladi. Voltmetr va milliampermestr ko'rsatishlari yozib boriladi.

6. O'lchash natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.


$U, \text{V}$							
$I, \text{mA}$							

7. Kalit ochiq (zanjir uzilgan) holatga keltiriladi.
8. Tok manbaining qutblari almashtirilib ulanadi va tajriba yuqorida keltirilgan 3-6-ko'rsatmalar bo'yicha takrorlanadi.
9. Natijalarga ko'ra, yarimo'tkazgichli dioddan o'tuvchi tok kuchining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqlik grafigi chiziladi.
10. Yarimo'tkazgichli dioddan to'g'ri p-n o'tish va teskari p-n o'tish yo'nalishda o'tadigan tok kuchining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligi 3-rasmdagi grafikda keltirilgan.


Diodga teskari yo'nalishdagi kuchlanish qo'yilganda diod pasportida yozilgan qiymatidan katta kuchlanish qo'yish mumkin emas.



1-rasm.



2-rasm.



3-rasm.

1. Diod to'g'ri ulangan holda tok kuchining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligi to'g'ri chiziqdan iborat emasligiga e'tibor bering va sababi ni tushuntirishga harakat qiling.

2. Nima sababdan teskari yo'nalishda kuchlanish qo'yilsa, undan biroz miqdorda bo'lsa ham, tok o'tadi?

3. Olingan ma'lumotlardan foydalaniib, diodning to'g'ri va teskari o'tish yo'nalishlari uchun elektr qarshiligidini toping.

